



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
PREZIDENTI HUZURIDAGI  
DAVLAT XIZMATINI  
RIVOJLANTIRISH AGENTLIGI



YOSHLAR ISHLARI  
AGENTLIGI



***“YANGI O‘ZBEKISTONNING ZAMONAVIY  
LIDERLARI”  
mavzusidagi ilmiy konferensiya  
materiaallari to`plami***



**Navoiy - 2022**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

**NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

# **YANGI O‘ZBEKISTONNING ZAMONAVIY LIDERLARI**

**IQTIDORLI YOSHLAR ILMIY KONFERENSIYASI**

**26-aprel, 2022-yil**

**Navoiy-2022**

XXI asr axborot texnologiyalar asri bo'lishi bilan birga fundamental fanlar rivojlangan, yuksak intellektual, yuksak salohiyatli, bilimli shaxslar asri hisoblanadi. Bu holat boshqaruvga oid munosabatlar sohasida ham yangilanishlar, islohotlar yuz berishi, liderlik qobiliyatiga ega, intellektual saviyasi yuqori, zamonaviy fikrlaydigan shaxslarning adolatli, insonparvar va eng muhimi xalqchil bo'lgan boshqaruv usullaridan amaliy hayotda samarali foydalana olishni ham talab qilmoqda. Mazkur to'plam "Yangi O'zbekistonning zamonaviy liderlari" mavzusidagi ilmiy konferensiya materiallaridan iborat.

To'plamda yangi avlod liderlariga qo'yiladigan talablar, ular xulqidan kutiladigan sifatlar jamiyatda sog'lom insoniy munosabatlarning barqarorlashuvi, sog'lom ma'naviy muhitning shakillanishi bilan bog'liq taklif va tavsiyalar ishlab chiqishning dolzarb masalalarini ilmiy-nazariy jihatdan qiyosiy o'rganishga e'tibor qaratilgan.

Ilmiy konferensiya maqolalar to'plamini tayyorlash uchun mas'ullar

**Mas'ul muharrir:** B.B.Sobirov, texnika fanlari doktori, professor.  
NavDPI rektori

**Ilmiy muharrir:** N.O.Safarova, falsafa fanlari doktori, professor.  
NavDPI Ijtimoiy fanlar kafedrasini mudiri

**Taqrizchilar:** I.B.Nasriddinov, dotsent  
X.R. Qurbonov, dotsent

**Tahrir hay'ati:** A.Latipov, D.Qodirov, M.Achilova, Sh.Turobova, M.Ochilova,  
R.Rasulov

**Texnik muharrir:** M.Norqobilov

Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardirlar.

## SO‘ZBOSHI

Yangi O‘zbekiston demokratik o‘zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. Hozirgi taraqqiyot va yuksalish davrida yashayotgan har bir O‘zbekiston yoshlari uchinchi renessans poydevori bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida zamonaviy va keng doirada fikrlaydigan yoshlarga bo‘lgan talabni yanada oshiradi. Biz ta‘lim olayotgan har bir talaba-yoshlarimizni o‘z navbatida keng dunyoqarashga va ularni zamonaviy ta‘lim standartlariga mos ravishda o‘qishga o‘rgatishimiz kerak bo‘ladi.

Yangi O‘zbekistonni barpo etish jarayonida davlat boshqaruv tizimidagi institutlar, tuzilmalar faoliyatida fuqarolarning faol ishtirokining kengayib borishi muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, davlat hokimiyati organlari tomonidan boshqaruvni erkinlashtirish va nomarkazlashtirish jarayonlari yangi qiyofadagi jamiyatini qurishga imkon berishidan tashqari, fuqarolarda milliy iftixor tuyg‘usini mustahkamlash uchun har tomonlama shart-sharoitlar yaratadi, har bir insonning o‘zligini namoyon etishi uchun puxta zamin hozirlaydi.

Bunday sharoitda boshqaruvni adolat tamoyillari va mas‘ullik hissi asosida tashkil etishi milliy iftixor tuyg‘usini shakllantirishning asosiy shartlaridan biri sifatida yanada muhim ahamiyat kasb etadi. O‘z o‘rnida, milliy iftixor tuyg‘usining oshib borishi fuqarolar zimmasiga yanada ko‘proq mas‘uliyat yuklanganini anglashga yordam beradi.

Mamlakatimizda davlat boshqaruv tizimi izchillik bilan takomillashtirilmoqda va modernizatsiya qilinmoqda. Bu, albatta, aholining huquq va manfaatlari ta‘minlanishiga, investitsiya jozibadorligiga hamda ishchanlik muhitining yanada yaxshilanishiga xizmat qiladi. Shuningdek, o‘zbek xalqi azaldan mehnatkash, vatanparvar, iymonli, ilimli va dono xalq hisoblangan. Tarixdan ma‘lumki, buyuk bobolarimiz hukmdor bo‘lib, o‘z davrida davlatni boshqaruv tizimini mustahkam va tartibli tarzda boshqarishgan. Xususan, bugungi kunda, boshqaruv sohasi vakillari ko‘plab sayi-harakatlari, oliy maqsadlar sari vatanimizning taraqqiyoti uchun tun-u kun tinmasdan mehnat qilmoqdalar. Bunday harakatlarning natijasi albatta davlat boshqaruv tizimini samaradorligini oshirishda ulkan poydevor bo‘lib xizmat qiladi. Shuningdek, yaqin yillarda, rivojlangan davlatlar boshqaruv tizimi bilan teng kela oladigan O‘zbekiston Respublikasining davlat boshqaruv tizimi eng samarador, mustahkam va yetakchi tizimlar qatoridan joy oladi.

Biz buyuklar avlodimiz va aynan hozirgi yoshlar ajdodlarimizga munosib bo‘lmog‘i darkor. Buning uchun esa Vatanni sevish, uni ardoqlash, xalqimiz kelajagi uchun fidokorlik hissi bilan yashash lozim. Shu bilan bir qatorda yuksak bilimli, ma‘rifatli, yangi O‘zbekistonni yangi marralarga olib chiqadigan darajada iqtidor sohibi bo‘lmog‘i lozim. Yurtimizda yoshlarga juda katta ishonch va imkoniyat yaratilgani va aynan yoshlarga Uchinchi Renessansning poydevori sifatida qaralayotgani ular zimmasiga katta ma‘suliyat yuklaydi. Muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev boshlab bergan bu yangi davr, yangicha dunyoqarashga ega yoshlar bilan mamlakatimizni yuqori marralarga olib chiqmog‘i, kerak bo‘lsa, butun dunyoni larzaga soladigan muvaffaqiyatlarni qo‘lga kiritishi shart va zarur. Vatanimizda boshlangan Uchinchi Renessans mehnatsevar, bag‘rikeng xalqimiz uchun tom ma‘noda yuksalish asri bo‘ladi desam aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

Navoiy davlat pedagogika instituti rektori  
texnika fanlari doktori, professor B.B.Sobirov

**Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги**  
**Давлат хизматини ривожлантириш агентлиги**  
**Навоий вилоят филиали раҳбари Султонов Зафар Рашидовичнинг**  
**“ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИНГ – ЗАМОНАВИЙ ЛИДЕРЛАРИ”**  
**мавзусида иқтидорли ёшлар илмий конференциясидаги**  
**ТАБРИК СЎЗИ**

Хабарингиз бор, сўнгги йилларда ҳурматли Президентимиз томонидан мамлакатимизда ёш авлодни баркамол қилиб тарбиялаш, уларнинг ҳаётга мустақил қадам қўйишлари учун барча зарур шароитларни яратишга қаратилган тизимли ишлар амалга оширилмоқда.

Жумладан давлат ва жамият бошқарувига ёш кадрларни кенгроқ жалб этиш, уларни келгусида масъул раҳбарлик лавозимларига тарбиялаб боришга алоҳида эътибор қаратилмоқда.

**Янги Ўзбекистонни** барпо этишга қаратилган умумхалқ ҳаракати сафларида ёшларнинг қудратли тўлқин бўлиб майдонга чиқаётгани юксак таҳсинга сазовордир.

Албатта, ёшликка хос шижоат, жўшқинлик ва мардликни, эзгу орзу-интилишларни амалий ҳаракатга айлантириб, салмоқли натижаларга эришиш учун инсон ўз олдига аниқ мақсад қўйиб яшаши керак.

Бугун амалга оширилаётган ҳар бир ислоҳот, ҳар бир саъй-ҳаракат замирида навқирон авлод манфаатини таъминлаш, уларнинг ҳақ-ҳуқуқини ҳимоя қилиш, ташаббус ва янги ғояларини қўллаб-қувватлаш ва истеъдодини юзага чиқариш мақсади мужассам.

Дарҳақиқат, давлатимиз раҳбари ҳар бир ташаббус, ҳар бир маъруза ва йиғилишлардаги нутқида ёшлар масаласига алоҳида эътибор қаратади.

Хабарингиз бор, 2021 йилнинг 30 июнь “Ёшлар куни” муносабати билан “Талабалар ва ёшлар” форумида Президентимиз томонидан ёш авлод манфаати юзасидан бир қатор масалалар, хусусан, иқтидорли ёшлар орасидан янги авлод захира кадрлари – **“Келажак лидерлари”**ни шакллантириш ташаббуси илгари сурилди.

Бугун ушбу ташаббус умумхалқ ҳаракатига айланиб, мамлакатимизнинг ҳар бир ҳудудида бўлгани каби вилоятимизда ҳам ана шундай шижоатли ёшлардан иборат **“Келажак лидерлари”** клуби ўз фаолиятини амалга ошириб келмоқда.

Ўтган давр мобайнида клубнинг 10 нафар аъзолари мансаб поғоналарида ўстиришга эришилди.

Клуб аъзоларидан 3 нафари **“Ҳоким ёрдамчиси”** лавозимида иш фаолиятини олиб боришмоқда.

Қолаверса вилоятимизда янги авлод захира кадрларини шакллантиришда мақсадида Навоий давлат педагогика институтида **“Ёш лидерлар клуби”** фаолиятини ҳам йўлга қўйдик.

Бугун фаол, ташаббускор, замонавий фикрлайдиган кўпчилик ёшларимизга ишонч билдирилиб, давлат фуқаролик хизматидаги бошқарув лавозимларга тайинланмоқда.

Хабарингиз бор, иқтидорли, шижоатли, ташкилотчи ва ташаббускор ёшлар орасидан танловлар орқали саралаб олинган 330 нафар ёшлар вилоятимиздаги маҳаллаларда ёшлар етакчилари сифати самарали меҳнат қилиб келишмоқда.

Бугунги кунда фан, таълим ва ишлаб чиқаришда инсон омилидан самарали фойдаланиш муаммоларини ҳал этишга комплекс ёндашувни таъминловчи иқтисодиётнинг барча соҳа ва тармоқларида инсон ресурсларини бошқариш масаласи тобора муҳим аҳамиятга эга бўлиб бормоқда.

Айниқса, давлат бошқаруви учун истиқболли кадрлар захирасини шакллантиришда ёшларни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, замонавий бошқарув тамойилларини пухта эгаллаши учун шарт-шароитлар яратиш бериш ҳамда уларнинг етакчилик қобилиятини шакллантириш орқали рақобатбардош ва малакали кадрлар тайёрлаш бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири ҳисобланади.

Бу эса инсон ресурсларини бошқариш борасида замонавий концепциялардан фойдалана оладиган, инсон ресурсларини режалаштириш ва меҳнат ресурслари бозорини ривожлантириш тенденцияларини аниқлай оладиган ва таҳлил қиладиган, давлат фуқаролик хизмати соҳасига ижтимоий шерикчилик механизмларини жорий этадиган, инсон ресурсларининг ўрни ва аҳамиятини назарий ва амалий жиҳатдан таҳлил этиб қарорлар қабул қилиш малакасига эга кадрларни тайёрлаш заруратини келтириб чиқармоқда.

Навоий вилоятида давлат фуқаролик хизмати жорий этилаётган давлат органлари ва ташкилотларида 6 мингга яқин давлат хизматчилари бошқарув ходимлари сифатида ишлаб келмоқда.

Бугунги кунда вилоятда Давлат фуқаролик хизмати жорий этилаётган давлат органлари ва ташкилотларининг кадрлар бўлинмаларида ишлаб келаётган 250 дан ортиқ ходимларнинг 95-98 фоизи асосан иқтисодиёт, таълим, ҳуқуқшунослик, педагогика, қурилиш, молия ва бошқа соҳалардаги мутахассисларни ташкил этади.

Мазкур лавозимларда ишлаб келаётган кадрлар малакаси ва мутахассислигининг уларга юклатилган вазифалар ва замонавий талабларга номувофиқлиги эса сўнгги йилларда мамлакатимизда давлат фуқаролик хизмати фаолияти самарадорлигини оширишга қаратилган кенг кўламли ислохотларни самарали амалга ошириш имкониятини бермайди.

Вилоятда фаолият юритаётган давлат органлари ва ташкилотларининг кадрлар хизмати учун инсон ресурсларини бошқариш бўйича зарур билим ва кўникмаларга эга малакали мутахассис кадрларни тайёрлашни вилоят ҳудудида, хусусан Навоий давлат педагогика институтида ташкил қилиш мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Яъни институтида **“5231600-Инсон ресурсларини бошқариш”** бакалавриат таълим йўналишини очиш таклиф этилади.

Фикримизча, вилоятимизда **Ёшлар билан ишлаш**, иқтидорли ёшларни ўз вақтида аниқлаш, **уларда етакчилик қобилиятини ўстириш** ва **кўникмаларини мустаҳкамлаш** учун, **ватан** тақдири учун бефарқ эмас шахс сифатида тарбиялашга **қаратилган алоҳида ҳамкорлик механизмини яратишимиз** керак.

Ўйлайманки, ушбу ҳаракатларимиз юртимизда кадрлар билан боғлиқ долзарб муаммоларни ҳал этишда муҳим аҳамият касб этади.

### **Ҳурматли анжуман иштирокчилари! Қадрли ёшлар!**

Сизларнинг интеллектуал, маънавий ва жисмоний салоҳиятингизни рўёбга чиқаришга юртимизда барча имкониятлар яратилган. Сизлар том маънода юртимиз истиқболи, ёруғ келажагимиз бунёдкорисиз!

Ҳаммангизга ана шундай улкан бахт, улкан шараф насиб этсин!

Ёшларни давлат фуқарлик хизматига жалб этиш, иқтидорли ва истеъдодли ёшлар орасидан истиқболли ёш кадрлар захирасини шакллантириш, **уларда жамоа билан ишлаш етакчилик кўникмаларини шакллантириш** масалалари доимий эътиборимиз марказида бўлади.

Xullas, o'quvchiga har bir darsda mustaqil fikrini ayta olish imkonini yaratish, undagi bu qobiliyatni shakllantirish va rivojlantirishga turtki berish hozirgi kun talabiga aylanmoqda.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Douglas Brown., Teaching by principles. Pearson. Longman, 2010
2. Qodirova F. R., Qodirova R.M Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. T., 2006.
3. Qodirova F. R. Maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tiliga o'rgatishning lingvodidaktik muammolari. J., "Pedagogik ta'lim", 2002, N2.
4. Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqini rivojlantirishning psixologik omillari. Sariog'och, 1998.

#### **FIZIKA FANIDAN LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI BAJARISHDA MOBIL DASTURIY VOSITALARDAN FOYDALANISH (7-SINFLAR MISOLIDA).**

**Shahlo Jamolova** – BuxDU fizika mutaxassisligi magistranti,  
**H.O.Jo'rayev** - BuxDU fizika kafedrası dosenti, p.f.d, Buxoro

Fizikadan umumiy o'rta ta'lim davlat o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risidagi" Qonuni va Kadrlar tayyorlash milliy dasturini hayotga tadbıq etish maqsadida ishlab chiqilgan "Umumiy o'rta ta'lim maktablari uchun fizikadan davlat ta'lim standartlari asosida tuzilgan".

Maktabda fizika ta'liming ahamiyati uning fan-texnika taraqqiyotida, ishlab chiqarish sohalarida va kundalik hayotda tutgan o'rni bilan belgilanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fiziak ta'limining asosiy vazifalaridan biri o'quvchilarning fizik hodisalar, tushunchalar, kattaliklar, modellar, qonunlar, o'lchashlar, fizikadan amaldagi tadbıqlari, olamning fizik manzarasiga oid bilimlar bilan birga fizika oid asbob va uskunlardan, laboratoriya o'tkazish jarayonida sodda xulosalar chiqarish, xavfsizlik qoidalariga rioya qilish malakalarini shakllantirishdan iborat. [1.4]

Laboratoriya ishlarini metodik talablar asosida tashkil etilsa, o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi. O'quvchilarga berilgan savolni tajriba asosida javobini topishga o'rgatiladi.

Fizika darslarida laboratoriya ishlarini tashkil etish va o'tkazishni quyidagi o'quv masalalarini hal qilinadi:

- o'rganiladigan qonunlarning to'g'riligini isbotlanadi;
- fizik kattaliklarni o'lchashni o'rganiladi;
- fizik kattaliklar va fizik hodisa o'rtasidagi bog'lanishni anglaydilar;
- o'lchov asboblari bilan ishlashni o'rganadilar;
- sxemalar va chizmalarni o'qishni o'rganadilar;
- o'quvchilarda konstruktorlik, ijodkorlik va texnik qobiliyatlari rivojlanadi;
- fizik asboblarning tuzilishi va ishlash jarayonlari o'rganiladi.

Laboratoriya ishlarini tashkil etishda ikki xil usuldan foydalaniladi:

1. Frontal laboratoriya ishlari
2. Fizik praktikumlar

Frontal laboratoriya ishlarini o'tkazishda sinfdagi barcha o'quvchilar bitta mavzuni, bir xil asboblardan o'qituvchining ko'rsatmasi asosida o'tkazadilar. Bu laboratoriya ishlari 45 minut ya'ni 1 soatga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Ayrımlari esa 5-15 minut bo'ladi.

Qisqa muddatli frontal laboratoriya ishlari-frontal tajribalar deb maktab o'quvchilarini har tomonlama taraqqiy qildirishda fizika o'qituvchisi qo'llaydigan turli o'qitish formulasi mavjud. Bular orasida frontal laboratoriya mashg'ulotlari: laboratoriya ishlari, laboratoriya kuzatishlari, sifatıy tajribalar va kuzatishlar, frontal eksperiment va hokozalar alohida o'rin tutadi. Ular uzoq davom etuvchi va qisqa muddatli, kirish va yakuniy, o'quvchining batafsil ko'rsatmalari bo'yicha yoki ko'pgina mustaqillik elementlari bilan bajariluvchi hisobot va baholashga talab etuvchi bo'lishi mumkin. [3]

Maktabda fizikadan laboratoriya mashg'ulotlarining forma va metodlari turlicha. Masalan: zveno usulda, frontal usulda o'tkazish mumkin. Ayniqsa bu mashg'ulotlarning frontal metodi ma'lumki, qator muhim juda yaxshi xususiyatlarga ega. Bu usul eng avvalo o'quvchilarning laboratoriya mashg'ulotlarini o'rganilayotgan kurs bilan yaqindan bog'lashga va praktikumlarda o'quvchining demonstratsion tajribalari bilan o'quvchilar mustaqil bajaradigan laboratoriya ishlari o'rtasida aloqa o'rnatishga imkon beradi. Frontal usul tufayli laboratoriya mashg'ulotlari biror bo'lim rejasiga kirish qismidek yoki o'quvchi tushuntirishga qo'shimcha sifati yoki o'tilgan materiallarni o'rinda yoki olingan bilim o'quv va malakalarni tekshirish holida qo'yilishi mumkin. Frontal mashg'ulotlar bir vaqtning o'zida sinfdagi barcha o'quvchilarni u yoki bu masalalari yechimini izlashga jalb etish imkonini beradi. Bu hol o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini ancha faollashtiradi.

Laboratoriya eksperimenti o'qitish jarayonida materialni chuqur o'zlashtirishga ancha yordam beruvchi zarur bo'g'in bo'lib, o'quvchilar bilimidagi formalizmga qarshi kurash vositasidir. Bundan tashqari, frontal metod o'quvchilarga eng sodda o'lchov asboblari va boshqa apparatura bilan muomila qilishda ba'zi boshlang'ich amaliy malaka olish imkonini beradi.

Frontal laboratoriya mashg'ulotlarini muvafaqqiyatli o'tkazish uchun har bir maktabda sanoat ishlab chiqaradigan asboblari va qisman qo'lda yasalgan asboblardan iborat sinchiklab taxlangan asbob-uskunalar komplekti bo'lishi lozim.

Maktab ustaxonalarida o'quvchilarning o'zlari oddiy asboblari va moslamalar masalan: shayinli tarozi, sim ilgaklar, tunukadan qilingan tutqichlar va hokazolarni osongina yasay oladilar.

Laboratoriya ishlarining belgilariga ko'ra uning klassifikatsiyasi har kim bo'lishi mumkin. Masalan: qisqa vaqtli va butun bir darsga mo'ljallangan ishlar fizikaviy hodisalarni kuzatish bilan bog'langan sifatli ishlar va kuzatishgina emas, balki o'lchashlar ham bajariladigan miqdoriy ishlar: oldindan taklif qilingan reja asosida bajariladigan ishlar va o'quvchilarga mustaqillik beriladigan ishlar va boshqalar mavjud. Ammo bu belgilarni hammasi frontal laboratoriya ishlarining xilma-xilligini qamrab ola olmaydi. Metodik nuqtai-nazardan o'qituvchining frontal laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil qilishda tutgan maqsad va vazifalari bo'yicha klassifikatsiyasi qilinadigan ishlar eng qiziqarlidir. [3]

Bu belgilarga muvofiq, masalan quyidagi turdagi ishlarni ko'zda tutish mumkin.

1. Fizikaviy hodisalarni kuzatish va o'rganish.
2. Turli xil fizikaviy asbob, qurilmalarni tuzilishi va ishlashi hamda ularni ishlatish usullari bilan tanishish.
3. O'lchov asboblari bilan tanishish va fizikaviy kattaliklarni o'lchash.
4. Fizikaviy kattaliklar orasidagi miqdoriy qonunlarni aniqlash yoki tekshirish.
5. Fizikaviy doimiylarning aniqlash va shunday aniqlashlarning turli metodlar bilan tanishish.

Frontal laboratoriya ishlari o'qituvchiga biror masalaning yechimini izlashga kerak bo'lganda butun sinf o'quvchilarini jalb qilishga imkon beradi. Bunday ishlar odatda o'qituvchining tushuntirish, dars davomida masalalar yechish, o'quvchilarning savollari kelgusi mashg'ulotlarga tayyorlanish, o'lchov asboblari bilan ishlashni mashq qilish kabilari bilan bog'langan. Shunday qilib frontal mashg'ulotlarimiz o'ziga ta'lim berish emas balki bu eng avval o'rgatishdir. Bu yerda asosiy rolni o'qituvchi bajaradi. U ham ishni tashkil qilishi va yo'naltira bilishi. O'quvchilar bilan mashg'ulotlar rejasini tuzishi, asbob-uskunalarni tez tayyorlashni va tarqatishni tashkil etishni, og'zaki aniq va tushunarli vazifalar hamda tushuntirishlar berishi, o'quvchilarga o'z vaqtida yordam berishi olgan ish natijalarini qayta ishlashi va umumlashtirishni, o'quvchilarni doimo kuzatib turishi, ular olgan o'quv, bilim va malakalarni nazorat qilishi va baholashi kerak. Hamma ishni muvafaqqiyatli o'quvchini shunday ishlarga qanchalik yaxshi tayyorlanganligiga bog'liq, frontal laboratoriya ishlari turlicha o'tkazilishi mumkin. Fizika kursining biror mavzusiga kirish sifatida o'tilganlarni takrorlash va umumlashtirish sifatida yoki olingan bilim o'quv va malakalarni nazorat qilish sifatidir.

Laboratoriya ishlarni frontal bajarish kirish qismida aytib o'tilganidek, mashg'ulot oxirida olingan kuzatish va o'lchashlar natijalarini jamoa ravishda muhokama qilishga to'la imkon beradi. Bu o'quvchilar zvenolari ishni to'g'ri bajarganini tez nazorat qilishga imkon beradi va

ularni asta-sekin shunday natijalarni ishlab chiqish va to'g'ri baholashni o'rgatadi.7-sinflarda sonli natijalarni ishlashda taqribiy sonlar ustida amallar bajarish qoidalari bilan cheklanish yetarli bo'ladi.Bu yerda bunday hisoblashlarning jami va xarakterini muhokama qilishga zaruriyat yo'q,chunki bularning hammasi o'lchash xarakteridagi ko'pchilik ishlarning bayoni oxirida batafsil keltiriladi.

Shuni esda tutish kerakki,laboratoriya ishlarini bajarishda o'quvchilar xatoliklarni hisoblash usullari va malakalarini juda qiyinchilik bilan o'zlashtiradilar,shuning uchun bu yerda ayrim umumiy dastlabki ko'rsatma va tushunchalar bilan chegaralanish mumkin emas. [5.6]

Demak biz yuqorida ananaviy dars davomida laboratoriya mashg'ulotlarini tashkil etish, ularning qanchalik darajada ahamiyatga ega ekanligi haqida to'liq ma'lumotga ega bo'dik.Shu o'rinda savol tug'ilishi tabiiy respublikamiz miqiyosidagi barcha maktablarda fizika fani laboratoriya mashg'ulotlari uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalar bilan jihozlanganmi?Albatta dars jarayoni biroz chegaralanganligini hisobga olsak ,jihozlar yetishmovchiligini hisobga oladigan bo'lsak biz doim ham kutganimizdek natijaga erishmasligimiz mumkin.Biz bunda imkon qadar samarali yo'l topishimiz kerak.Mobil ilovalar esa bu vaziyatda eng ishonchli usul deb hisoblayman.Mobil dasturiy vositaning laboratoriya darslarida qo'llanilishining ijobiy tomonlari mavjud.Masalan 7-sinflarda fizika fanidan quyidagi laboratoriya mashg'ulotlari berilgan:Tekis tezlanuvchan harakatlanayotgan jism tezlanishini aniqlash,prujina bikrligini aniqlash,sirpanish ishqalanish ko'effitsiyentini aniqlash,jismni ko'tarishda va shu masofaga gorizontalko'chirishda bajarilgan ishni hisoblash,jism kinetik energiyasining uning tezligi va massasiga bog'liqligini aniqlash.O'quv yili mobaynida o'quv reja bo'yicha shu mavzular laboratoriya mashg'ulotida kelgan .Birinch muammo aksariyat hollarda jihozning yetishmasligi yoki uning kam sonli ekanligi.Bunday holda ham o'quvchilarda ish yuzasidan to'liq ma'lumot shakllanmaydi.Keyingi masala esa balki o'quvchi qandaydir sabablar bilan ushbu darslarda qatnasha olmagan bo'lishi ham mumkin.Bunda albatta mobil ilova qo'l keladi.O'quvchi berilgan laboratoriya mashg'ulotini video ko'rinishida ko'rib ish to'g'risida to'la tasavvurga ega bo'lishi mumkin,qolaversa darsda qatnasholmagan o'quvchilar ham mobil ilova yordamida darsni o'zlashtirib olish imkoniyatiga ham ega bo'ladilar.Qo'shimcha sifatida aytishimiz mumkinki o'quvchilar darsda laboratoriya mashg'ulotini bajaranib ko'rib to'liq tushuncha olmagan bo'lsalar ham mobil ilova yordamida uni qayta qayta ko'rish orqali ham laboratoriya mashg'ulotini to'liq o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

3. Toshpo'latova D. , Egamqulova Z.(2021).Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'qituvchining innovatsion faoliyati.46-51-bet
4. Orishev J.(2021).Innovatsion ta'lim texnologiyasida loyihalash metodining imkoniyatlari.123-bet
5. Y.I.Perelman "Qiziqarli fizika" Toshkent-2009y 6 bet.
6. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.Davlat ilmiy nashriyoti,2017-yil,176-bet
7. Habibullayev P. 7-sinflar uchun fizika darslik Toshkent 2017-yil 173-174-bet
8. Ignatova I.G. Ta'limdagi axborot - kommunikatsion texnologiyalar.2003-yil 78-81-bet

### **BUXORO AMIRLIGIDA MANG'ITLAR SULOLASINING HOKIMIYAT TEPASIGA KELISHI**

**Jo'rayev Isomiddin Ismoilovich,  
Ismoilov Shaxzod Ismatullo o'g'li**

Buxoro davlat universiteti Tarixshunoslik,  
manbashunoslik va tarixiy tadqiqot usullari mutaxassisligi magistrantlari, Buxoro

Mang'itlar davrida Buxoro xonligi, Buxoro amirligi deb atalib, bu sulola mamlakatni 1756-yildan 1920-yilgacha boshqaradilar. Eron amirlari Abulfayzxon qatldan so'ng sulxga rozi bo'lib, agar o'zbeklar ularga xalaqit bermasalar ular Buxoroni tark etajaklarini

yangilanayotgan va Jahon tan olayotgan mamlakat. Yoshlarning Sport, madaniyat, san'at, ilm - fan rivojiga qo'shayotgan hissalarini e'tirof etmaslikning iloji yo'q.

“Renessans” lug'aviy fransuzcha “qayta tug'ilish” degan ma'noni anglatadi. Atama sifatida uning mazmuni ancha keng: madaniyatda, ilm – fanda, san'atda, ta'lim – tarbiyada, umuman jamiyat hayotida uzoq muddatli turg'unlikdan keyin qayta jonlanib, tez rivojlanishni, ijtimoiy ong va qadriyatlar tizimi yangi sifat bosqichiga chiqishni bildiradi.

Mazkur maqolada men Yangi O'zbekiston ma'rifatli jamiyatini yaratishda yosh oilalarda kitobxonlikni targ'ib qilish va maktabgacha ta'lim va maktab (6-12 yosh) yoshidagi bolalar o'rtasida “Zakovat kids” intellektual o'yinini o'tkazish va ommalashtirga e'tibor qaratdim.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-yanvardagi “Zakovat” intellektual o'yinini aholi o'rtasida ommaviy-ma'rifiy harakatga aylantirish va boshqa intellektual o'yinlarni rivojlantirishga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi PQ-96-son qaroriga binoan maktabgacha ta'lim yoshidagi (6-7) bolalar o'rtasida “Zakovat kids” club intellektual o'yinini tashkil etish va ommalashtirish, iqtidorli yoshlarning mantiqiy bilimlarini oshirish, ularni saralash va intellektual o'yinlarga keng jalb qilish, ushbu o'yinlar tashkil qilinishini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash va zarur sharoitlarni yaratish bo'yicha chora tadbirlar belgilangan.

Sh.M.Mirziyoyev hokimiyat tepasiga kelgach, prezidentimizning barcha sohalarda amalga oshirgan islohotlari III renessans boshlanishi sifatida baholandi. Xalqaro valyuta jamg'armasi farmoyish beruvchi direktori Kristin Lagardning mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar haqida to'xtalib, ularga O'zbekiston renessansi, yangi uyg'onish davrining boshlanishi sifatida baho bergani, ayniqsa, diqqatga sazovordir. Mamlakatimizda III renessans poydevorining qo'yilishi bevosita ma'naviyat bilan chambarchas bog'liq. Qachonki, xalq , xususan, yoshlar ma'naviyati yuksak bo'lsagina , yangi uyg'onishni amalga oshirishimiz mumkin. Buni chuqur anglagan muhtaram Prezidentimiz asosiy e'tiborni ma'naviyatni rivojlantirish , xalqimizni ma'rifatli qilishga qaratdi.

Oilada kitobxonlikning hukm surishi bu o'sib kelayotgan , shu oilada kamol topayotgan farzandlarning ham kelajakda ilmi va ma'rifatli bo'lishida asosiy rol o'ynaydi. Barchamiz bilamizki, kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish , bevosita ma'naviyatimizni o'sishiga olib keladi. Shu sababli, kitobxonlik madaniyatini mahalliy bo'g'imlargacha yoyish, jumladan, chekka hududlarda ilmiy, diniy, badiiy bilim beradigan qimmatli kutubxonalarni tashkil etish zarur.

Bolaga yoshlikdan ertak kitoblar o'qib berish uning ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan bir qatorda kitob orqali bolaga ota – onaning ta'siri kuchayib ular o'rtasida kommunikativ aloqalarni kuchaytiradi. Bu esa bolada yoshlikdan ota - onaga hurmat tuyg'ularini shakllantirib boradi. Tug'ilgandan uch yoshgacha bo'lgan oraliqda insonning qobiliyati va fe'l – atvori deyarli shakllanib bo'ladi. Shuning uchun maktabga borganida qobiliyatli bola bilimni hech qanday qiyinchiliksiz, qobiliyati yetarlicha shakllantirilmagani esa doim uzoq vaqt sarflab, mashaqqat bilan o'zlashtirishiga to'g'ri keladi. Barchasi bola kelajagini hal qiluvchi hayotiy bosqich, ya'ni uch yoshgacha bo'lgan davrdagi go'dak miyasining rivojlanish darajasiga bog'liq. Shuning uchun ham tug'ilishdan uch yoshgacha bo'lgan davr va berilgan ta'lim juda muhimdir. Zero Buyuk bobokalonlarimiz Amir Temur, Imom Ismoil Buxoriy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur Mirzo Ulug'beklar ham aynan oilada kitobga oshno bo'lib kamol topishgan. Ularni zikrak va zukko onalari va teran fikrli otalari tarbiyalashgan.

